

ABDULLA ORIPOV IJODIDA FOLKLORIZMLARNI O`RGANISH USULLARI

Ergashov Islom Ikrom o`g`li

Jizzax davlat pedagogika institute o`zbek tili va adabiyoti magistranti
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada folklorizmlar va Abdulla Oripor ijod namunalarida folklorizmlarning ishlatalishi haqida yoritilgan. Shoirning ayrim she'rlaridan parchalar misolida folklorizmlarning ishlataligan o`rnlari ko`rsatib, tushuntirilgan.

Kalit so`zlar: folklorizmlar, xalq og`zaki ijodiyoti, iste'dod, tasviri vositalar, badiiy matn, she'riyat, ifoda uslubi.

Folklorizm — yozma adabiyotda qo'llangan og`zaki poetik ijod materiali. Ilmiy adabiyotlarda folklorizm “ikkinci shakl” (K. Chistov) atamasi bilan ham yuritiladi. Yozma adabiyotda muallif yoki personaj nutqida qo'llangan xalq maqollari, matal hamda iboralar folklorizm sanaladi. Ijodkorning folklorga xos tasvir uslubiga ergashishi, folklor materialidan o‘z asarida foydalanishi, folklorga mansub syujet yoki motivni asariga olib kirishi va boshqa murakkab F. hisoblanadi. Asqad Muxtorning “Chinor”, Turob To‘laning “Suyuk momo” Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni”, Abdulla Oripovning “Qasam dara”, O’tkir Hoshimovning “Parvona kuni”kabi asarlarida folklorizmning yorqin namunalari bor [5].

“Dunyodagi har qaysi xalq va elatning o‘ziga xos og`zaki ijodiyoti bor. Bu ijodiyot o‘sha xalq yoki millatning beba ho tafakkur xazinasi, milliy histuyg‘ularining sarchashmasi, hofiza va xotira manbaidir” [1,23]. Folklor va yozma adabiyot munosabati benihoya keng bo‘lib, bu muommo milliy adabiyotning shakllanish va rivojlanishida xalq og`zaki ijodining roli, unga xos tasviri vositalar, badiiy shakllardan foydalanishning muhim tomonlari, folklorizmlarning yuzaga

kelishi kabi masalalarni qamrab oladi. Folklor asarlarining Abdulla Oripov ijodiyotiga ko`rsatgan ta`siri va bu ta`sirning shakllarini yoitish maxsus izlanishni talab qiladigan mavzudir. Shoирning qalamiga mansub bo`lgan “Qasam dara” she’ri orqali bu haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz. Bu she’e sof o`zbek xarakterini ko`rsatib berishi bilan ajralib turadi va uslubiy o`ziga xoslikni mujassamlashtirgan. I.Haqqulov “Qasam dara” haqida shunday deydi:” Balki Abdulla Oripov ham ishq nimaligini, u odam ruhida qanday imkonlar ochishini dastlab xalq og`zaki ijodi yoki Mahkam momodan eshitgan ertaklaridan anglab olgan”[3]. Quyida “Qasam dara” she’ridan ayrim parchalar va ularning izohini keltiramiz:

-Ana, ovchi, ohu quvadi,
Uchadilar toshlar aro tik.
Qochqin ohu toqqa qo‘nadi,
So‘ng daraga sakraydi, sho‘rlik!
Qasam dara-daralar sheri
O‘lja kutib uvlarkan pastda,
-Hay – deydi-yu (o,sen,ov,mehri)
Tashlanadi ovchi ham pastga.

Folklor variantidagi kiyik suti Abdulla Oripov ijodida kiyik aniqrog`i ov mehri bilan tenglashadi. Zero shoир uchun «kiyik suti» motiviga zarurat yo‘q.

She’ning boshlanishidagi misralar uning yakunlovchi qismida yana tarorlanadi:
Qasam dara shovullaydi mast,
Guvullaydi tubi yo‘q makon.
Ana shundan keyin lirik chekinish beriladi. Unda bayon etilgan voqealarg a muallif fikr bildiradi:

... Qasam dara kezdim sahningda,
Kiprikdagи yoshday omonat.
Qasam dara, sening bag‘ringga
Qasam ichgan tusharmish faqat
Hayrat bilan senga boqurman,
Hali qasam ichmaganim rost.

Na ovchiman va na botirman,
Kezib yurgan oshiqman, xolos [4].

Demak, Abdulla Oripov folklor namunasidan farqli ravishda asosiy e’tiborni ikkita nuqtaga qaratmoqda. Bular-ov mehri va yor mehri. Ikki tushuncha she’rda bir-birini to`ldirib, izohlab keladi va yagona-ishq degan tushunchaga aylanadi.

Abdulla Oripov “Xalq og‘zaki ijodiga bepisandlik adabiyotdan yiroqlikdir”, degan qat’iy xulosani ilgari surgan. Shoir mehri tushgan ifoda va iboralardan turli mavzu va holatlar, kechinma va kayfiyatlar tasvirida foydalanadi. Masalan, “Shoh va gado” deb nomlangan she’rida “*Siyangan joyida azizdir inson*” degan xalq maqoli qo‘llangan:

G‘aybdan sado keldi: — Tingla, ey banda,
Barchangga yaratgum yagona makon.
Bir-biring kamsitib qilma sharmanda,
Siyangan joyida azizdir inson [4;9]

Maqol mazkur holatda har bir inson qadr-qimmat topishga loyiq va munosibdir, degan haqiqatning badiiy tasdig‘i uchun xizmat qilayapti. Ayni mana shu maqolning ishlatilishi boshqa bir she’rda fikrning siqiq, baytlarning quyma, ma’nolarning teran bo‘lishini kafolatlagan. Bular maqollar asosida yaratilgan she’riy hikmatlarni eslatadi.

Xullas, Abdulla Oripov she’rlarida an’anaviy ifoda-tasvir vositalarini emas, ko‘pincha faqat shoirning o‘zigagina xos bo‘lgan tashbehlar, sifatlashlar, hazil-mutoyibalarni, shuningdek folklorizm namunalarini uchratish mumkin. Ularda shoir qo‘llagan ibora va jumlalar oddiy xalq tilida ifodalanib, ular jimjimadorlikdan xoli. Shoир qo‘llagan har qanday poetik ko‘chim va poetik topilmalar lirik qahramon ruhiyatining turli qirralarini kashf etishga, she’rning badiiy –estetik mohiyatini to`la ta’minlashga hissa qo`shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurova .G.N. Abdulla Oripov she’riyatida an’ana va badiiy: Filol. fanlari dok. diss. ... avtoref. — Toshkent, 2008. — 49 b.

2. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tajriji. Monografiya va maqolalar Toshkent. ‘Yangi asr avlodi’ 2002y
3. N. Karimov. B. Nazarov. Adabiyot. 9sinf (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘lla nma) T. «Ma’naviyat» 2002 y
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 2001. 4-jild. — 74 b
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki>